

Tursunboyeva Kamola Ilxomjon qizi
Andijon davlat Pedagogika instituti 1-bosqich tayanch doktoranti
Email:kamola.tursunboyeva@mail.ru
[Tel:+998916717124](tel:+998916717124)

UO’K 37.011.3:001.895

PEDAGOGIK YONDASHUVLAR EVOLUTSIYASI

Annotatsiya: Barcha sohalarda bo’lgani singari ta’lim sohasida ham kundan kunga o’zgarishlar, rivojlanishlar, yangiliklar kiritilmoqda. Ta’lim pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilsa, albatta, u samarali, kafolatlangan bo’ladi. Buning uchun ta’lim beruvchi ham ta’lim oluvchi ham avvalambor pedagogik yondashuvlarni, uning evolutsiyasini yaxshi bilishi talab etiladi. Ushbu maqolada pedagogik yondashuvlar evolutsiyasi haqida keng yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: pedagogik yondashuv, evolutsiya, ta’lim sifati, Suqrot metodi, interaktiv ta’lim, o’qituvchi faoliyati, rivojlanish psixologiyasi.

Камола Турсунбаева – дочь Ильхомжона.
Андижанский государственный педагогический институт, базовый
докторант 1 ступени

Электронная почта: kamola.tursunboyeva@mail.ru

Телефон: +998916717124

ЭВОЛЮЦИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ

Аннотация: Как и во всех сферах, в сфере образования каждый день происходят изменения, разработки и инновации. Если образование организовано на основе педагогических подходов, оно обязательно будет эффективным и гарантированным. Для этого и учителю, и ученику необходимо знать педагогические подходы и их эволюцию. В этой статье представлен широкий обзор эволюции педагогических подходов.

Ключевые слова: педагогический подход, эволюция, качество образования, метод Сократа, интерактивное обучение, деятельность учителя, психология развития.

Kamola Tursunbayeva Ilkhomjon's daughter
Andijan State Pedagogical Institute 1st stage basic doctoral student

Email: kamola.tursunboyeva@mail.ru

Phone: +998916717124

EVOLUTION OF PEDAGOGICAL APPROACHES

Abstract: As in all fields, changes, developments, and innovations are introduced every day in the field of education. If education is organized on the basis of pedagogical approaches, it will certainly be effective and guaranteed. For this, both the teacher and the learner need to be familiar with pedagogical approaches and their evolution. This article provides a broad overview of the evolution of pedagogical approaches.

Key words: pedagogical approach, evolution, quality of education, Socrates' method, interactive education, teacher's activity, developmental psychology.

Kirish

Ta'limga bo'lgan e'tibor kundan kunga ortib bormoqda. Shu bilan birgalikda ta'limning sifati ham yuksak darajada bo'lishi kerak. Ta'lim sifatini yuksaltirish uchun pedagogik yondashuvlar samarali bo'lmog'i lozim. Ta'limda pedagogik yondashuvlar bo'lar ekan, bunday ta'limdagi natija albatta samarali bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5847-sonli farmoniga asosan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ni tasdiqlash to'g'risida farmonida oliy ta'lim, xususan texnologik ta'lim sohasida quyidagi ishlar rejalashtirilgan. Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish nomli 1-bo'limida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini investitsiya dasturlari, hududiy va tarmoq dasturlari, vasiylik kengashlari talablari, jahon miqyosidagi texnologik o'zgarishlarni inobatga olgan holda shakllantirish, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini optimallashtirish, bunda STEAM yo'nalishlarini (aniq fanlar, texnologiya, injiniring, ijodiy san'at va matematika) rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish belgilangan.

Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish haqidagi 4-bo'limda esa talaba-yoshlarni hunar o'rganish, yangi bilim egallash, o'z ustida ishlash, zamonaviy texnologiya yutuqlaridan maqsadli foydalanish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga undash orqali ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun ta'lim muassasalarida shart-sharoitlar yaratish belgilab olingan.[1]

Adabiyotlar tahlili

Pedagogik yondashuvlar evolutsiyasi bo'yicha ko'plab tadqiqotchi olimlar izlanishlar olib borishgan. Jumladan: Jon Piaget, Lev Vgotskiy, Jerome Bruner, Jon Devey, B.F.Skinner, Albert Barduna, Hovard Gardner va boshqalar shular jumlasidandir. O'zbek tadqiqotchilaridan Adolat Alimova, Sheriboyeva O'.X, Dilnoza Oxunova va boshqalar. Dars davomida pedagogik yondashuvlarni tashkil etish albatta tarixiy jarayon hisoblanadi. Uzoq o'tmishga borib taqaladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada pedagogik yondashuvlar evolutsiyasi kelib chiqishi, tarixi, rivojlanish bosqichlari, mazmun mohiyati yoritib berilgan. Har bir davrning o'ziga xos bo'lgan pedagogik yondashuvi, olimlarning qarashlari asosida keltirilgan. Ta'lim jarayoniga pedagogik yondashuvning ta'siri aniqlab keltirilgan.

Tahlillar va natijalar

Ta'limga bo'lgan e'tibor kundan kunga ortib bormoqda. Shu bilan birgalikda ta'limning sifati ham yuksak darajada bo'lishi kerak. Ta'lim sifatini yuksaltirish uchun pedagogik yondashuvlar samarali bo'lmog'i lozim.

Pedagogik yondashuvlar evolutsiyasi tarixiy va ilmiy rivojlanish jarayonida bir qator muhim bosqichlarni o'z ichiga oladi. Quyida asosiy yondashuvlar va ularning rivojlanish bosqichlarini ko'rish mumkin (1-jadvalga qarang):

1-jadval

Asosiy pedagogik yondashuvlar va ularning rivojlanish bosqichlari.

No	Rivojlanish bosqichlari	Asosiy yondashuvlar
1.	An'anaviy yondashuv	Suqrot metodi Kontseptual yondashuv
2.	XIX asr ta'lim revolyutsiyasi	Liberal ta'lim

3.	XX asrning boshi	Konstruksionizm Davlat ta'limi
4.	XX asrning yarmidan keyin	Kognitiv yondashuv Rivojlanish psixologiyasi
5.	Yangi yondashuvlar	Interaktiv ta'lim Tizimli yondashuv

1. An'anaviy yondashuvlar:

- Suqrot metodi: Suqrot - falsafiy dialektikaning asoschilaridan biri bo'lib, u bahs orqali, ya'ni muayyan masalalarni o'rtaga qo'yish hamda ularga javob topish yo'li bilan haqiqatni aniqlash mumkin deb hisoblagan. Suqrot dunyoning tuzilishini hamda buyumlarning fizik holatini bilib bo'lmaydi, odamlar faqat o'zlarinigina bilishi, ahloqni kamol toptirishi kerak deb qarar edi. Suqrot faylasuf bo'lishi bilan birgalikda ajoyib notiq ustasi ham edi. U keng maydonlarda so'zga chiqqan holda, ahloqqa doir masalalar yuzasidan suhbatlar o'tkazar, tinglovchilarni savol-javob yo'li orqali haqiqatni o'zlari topishlariga va bilishlariga undar, shu yo'l bilan odamlarni haqiqatni izlashga yo'llar edi. Suhbatning bu usuli "Suqrot metodi" deb atalgan. U pedagogika olamiga mana shunday savol-javob metodini, ya'ni "evristik" suhbat metodini yangi (savol berish va savolni to'ldirish) metodini olib kirdi. Suqrotning ta'lim uslubi savol-javob orqali bilim olishga tayanadi.

- Kontseptual yondashuv: Asosiy ta'lim uslublari va metodologiyalari shakllanadi, masalan, klassik ta'lim usullari.

Alimova Adolat o'zining "Konseptni o'rganish metodlari va usullari" nomli maqolasida konseptual yondashuv tushunchasiga alohida to'xtalib o'tadi. [2]

Hozirgi kunda konseptning turli yondashuvlari mavjud. Turli ko'rinishdagi variantlarni birlashtiradigan bo'lsak, konsept - asosiy ma'noni ham o'z ichiga olgan holda so'z ma'nosining jami potentsiali degan xulosaga ega bo'lishimiz mumkin. Ta'kidlash joizki, "konsept" va "ma'no" terminlarini bir-biridan keskin farqlash lozim. Ma'no bu cheklangan tushuncha bo'lib, konseptning tarkibiga kirib ketadi.

2. XIX asr ta'lim revolyutsiyasi:

- Liberal Ta'lim: Yevropada, ayniqsa, yangi umumiy ta'lim (progressiv ta'lim) yondashuvlari rivojlana boshladi, bu yondashuvda talabalarning faol ishtiroki va individual yondashuv muhim ahamiyatga ega.

Liberal ta'lim, ta'lim oluvchilarga kengroq, umumiy bilimlarni taqdim etishga va ularning tanqidiy fikrlash, muhokama qilish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim yo'nalishidir. Liberal ta'lim, odatda, universitetlar va kollejlarda darajasida, umumiy bilim berish va o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi uchun mo'ljallangan. Bu ta'lim yo'nalishi o'quvchilarning umumiy bilim darajasini oshirish va ularni hayotga tayyorlashga yordam beradi.

3. XX asrning boshida:

- Konstruktsionizm: Jon Piaje va Lev Vigotskiy kabi tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan. Bu yondashuv bilish jarayonini va muhit bilan o'zaro ta'sirni o'rganadi. Bilim va tushunchalar o'rganish jarayonida faqat o'rgatuvchidan o'quvchiga ma'lumotlarni uzatishdan ko'ra, o'quvchilar o'z tajribalari va muhokamalari orqali bilim hosil qilishi va yaratishi kerakligini ta'kidlaydigan ta'lim nazariyasidir. Bu yondashuv, ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'zligini rivojlantirish va ularni mustaqil fikrlashga tayyorlashga qaratilgan.

- Davlat ta'limi: Davlat tomonidan tashkil etilgan, moliyalashtirilgan va boshqariladigan ta'lim tizimidir. Bu tizim davlatning ta'lim sohasidagi siyosati va strategiyalariga muvofiq ishlaydi. Davlat ta'limi, odatda, davlatning ta'lim sohasidagi asosiy roli sifatida qabul qilinadi va bu tizimning samaradorligi davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

4. XX asrning yarmidan keyin:

- Kognitiv Yondashuv: O'quvchilarning fikrlash va o'rganish jarayonlarini chuqurroq o'rganishga asoslangan.

- Rivojlanish psixologiyasi: Erik Erikson va boshqa psixologlar tomonidan ilgari surilgan rivojlanish bosqichlari ta'limga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadi. Erikson fikriga ko'ra, rivojlanuvchi bola har bir bosqichda o'zi uchun hayotiy

muhim bo'lgan shaxsiy asoslanganlik tuyg'usiga kelishi kerak va mas'uliyatsiz maqto'v yoki muruvvatli ma'qullash qoniqtirmasligi zarur. Uning egotengligi o'zi erishgan yutuqlar hayotning mazkur madaniyat uchun ahamiyatli sohalarida namoyon bo'lishini tushungan taqdirdagina real kuchga ega bo'ladi. [3]

5. Yangi Yondashuvlar:

- Interaktiv ta'lim: Kompyuter texnologiyalari va internetning ta'limdagi o'rni oshmoqda, bu esa yangi pedagogik yondashuvlarni yaratadi. Interaktiv ta'lim - o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida faol muloqot va o'zaro aloqani rivojlantiradigan ta'lim uslubidir. Bu usul ta'lim jarayonini jonli, qiziqarli va samarali qilishga qaratilgan. Interaktiv ta'lim metodlari, o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi va bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

- Tizimli yondashuv: Ta'lim tizimining barcha jihatlarini bir butun sifatida ko'rib chiqish, talaba, o'qituvchi va muhit o'rtasidagi o'zaro aloqalarni hisobga olish. Tizimli yondashuv, turli tizimlarni yoki jarayonlarni bir butun sifatida ko'rib chiqishga va ularning o'zaro aloqalarini tahlil qilishga qaratilgan yondashuvdir. Tizimli yondashuv, boshqaruv, ta'lim, muhandislik, iqtisodiyot va boshqa sohalarida qo'llaniladi, chunki u murakkab tizimlarni va jarayonlarni yaxshiroq tushunish va boshqarishga yordam beradi.

Pedagogik yondashuvlarning rivojlanishi ta'lim jarayonida innovatsiyalar va ijtimoiy ehtiyojlarga javob berishga qaratilgan. Bu rivojlanish har doim yangi ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar orqali yangi yo'nalishlarga olib keladi

Pedagogik atamalar lug'atida pedagogik yondashuvga quyidagicha ta'rif berilgan:

Pedagogik yondashuv – bu ta'lim muassasasi rahbari yoki o'qituvchining pedagogik faoliyatini o'zaro muayyan, uyg'un g'oyalar, tushuncha va usullardan foydalanishiga yo'llovchi metodologik yo'nalish. [4]

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagogik yondashuvlar evolutsiyasi uzoq yillik tarixga ega. Ta'lim haqidagi tushuncha paydo bo'lgandan to hozirgi

vaqtgacha pedagogik yondashuv o'z rivojlanishiga ega. Turli davrlarda turlicha qarashlar orqali ifodalandi, sayqallandi. Pedagogik yondashuv kundan kunga o'zgarib rivojlanib boraveradi, chunki u harakatsiz, o'z joyida to'xtab qoluvchi metodologik yo'nalishdir. Albatta, ta'limga o'z samarasi orqali zarur bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5847-sonli farmoni.Oliy ta'lim tizimini 2030-yilga rivojlantirish konsepsiyasi.3-bob.1,4-bo'lim.8-oktyabr 2019-yil.
2. Alimova.A.Konseptni o'rganish metodlari va usullari.Науный фокус-2023.may.B.1230
3. Nishanova Z.T.v.b.Rivojlanish psixologiyasi.Pedagogik psixologiya.O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.T.-2018.B.119.
4. Pedagogik atamalar lug'ati.T:-2008.B.55.